

**YUQORI SINF O'QUVCHILARNI KASB TANLASHLARIGA KO'MAK
BERISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

Nasimova Muqaddam Akbarovna

Boysun tumanidagi 2-sonli AFChO'SMM psixologи

Annotatsiya: Mazkur maqolada katta maktab yoshidagi o'quvchilarini kasbga yo'naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko'nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs xislatlari, o'quvchi psixologiyasi, o'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko'rsatuvchi mezonlar, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirishga tayyorlashni yosh bosqichlari mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'qituvchi, o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, kasb, kasbga yo'naltirish, yosh davrlar psixologiyasi, kasbiy shakllanish, psixik jarayonlar, ruhiyat

KIRISH

Hozirgi zamonaviy maktablarga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri yosh avlodlarga nafaqat ta'lim-tarbiya berish unga qo'shimcha ravishda ularni to'g'ri kasb tanlashga yo'naltirish ham muhim hisoblanadi. Maktablarda o'quvchi yoshlarning hayotda o'z kasblarini egallashida matematika, ona tili, geografiya, tarix kabi fanlar bilan bir qatorda texnologiya fani muhim hisoblanadi. Shu o'rinda bir savol tug'uladi, texnologiya fani o'zi qanday fan va uning yoshlarni kasb tanlashlarida qanday o'rni bor? Har bir inson uchun kelajak uchun kasb yoki hunar tanlash hayoti davomida qilinishi kerak bo'lgan eng muhim qarorlardan biri hisoblanadi. Chunki o'quvchilarni tanlangan kasblari ularning kelajagi bilan bog'liq hamda yashash tarziga ham ta'sir etadi. Inson o'zi tanlagan kasb yoki hunaridan zavq olsagina, qilgan ishidan ko'ngli to'ladi, kasbkoriga mehr uyg'onadi va o'z kasbining chin manodagi ustasiga aylanadi.

Ma'lumki, asosan bolalarda kasbga bo'lgan muhabbat va qiziqish katta maktab yoshi davrida uyg'onadi. Barcha o'quvchilar ularga ota-onasi yoki ustozlari tomonidan berilayotgan maslahat va o'gitlardan kelib chiqib o'ziga kasb yoki hunar tanlaydilar.

Ba'zi o'quvchi qiziqlisa, boshqalari ona tili, adabiyot, tarix, yoki huquq faniga qiziqadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari kasb tanlashdan hali uzoq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lishi kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlanadigan bo'lsin. Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor. Bular: – mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat-ehtirom;

–mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash;

- o`z ishini rejelashtirish va nazorat qila bilish;
- ish joyini to`g`ri tashkil qilish, ishning batartib va intizomli bo`lishi;
- toqatlik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish;
- materiallar hamda vaqt ni tejash va shu kabilardir.

Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini o`quvchilarda birinchi sinfdan boshlab shakllantirish lozim.

Yuqori sinf o`quvchilarini kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo`ljal olishga o`rgatish zarur. O`qituvchi o`quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba`zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin, bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy omil bo`lishi mumkin. Kasbni to`g`ri tanlash har bir o`sib kelayotgan avlodning obektiv vajlariga, qiziqishlariga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo`lishi uchun uning sog`ligini, o`zlashtirishini va hissiyotlarini hisobga olish lozim, bular ijtimoiy foydali va unumli mehnatda hammadan ko`ra ko`prok o`z ifodasini topadi va namoyon bo`ladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o`z xususiyatlariga qarab kasbni to`g`ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o`zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko`pgina olimlar o`tkazgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, mакtab o`quvchilarining taxminan 30 foizida tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang`ich sinflardayoq shakllanar ekan. Katta mакtab yoshidagi bolalar uchun mehnat ta`limining asosiy maqsadlaridan biri - o`quvchilarda inson uchun mehnat birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta`limi darslarida qariyb 80 foiz vaqt amaliy ishlar uchun ajratilgan. O`quvchilarning shaxsini o`rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog`liqdir.

O`qituvchi o`quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste`dod nishonlarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarini bartaraf etishi mumkin va h. k. Ba`zi bolalarda kasbga moyillik yaxshi namoyon bo`ladi, ko`pchilik bolalarda bu narsa birdaniga aniqlanmaydi. O`qituvchining boladagi iste`dod nishonalarini aniqlashi, ularni qobiliyatini rivojlantirish va shakllantirishda ko`maklashishi muhimdir.

Kasbga yo`naltirish ishi - o`quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik shaxs yetukligining eng muhim ko`rsatkichlaridan biridir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o'quvchilarni kasb-korni ongli ravishda tanlashga, ularni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularda ishga qiziqishni shakllantirishga ko`p jihatdan yordam beradi. Sinfdan tashqari mashg`ulotlarda olib borilayotgan kasbga yo`naltirish ishida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko`rsatib o`tish mumkin.

Didaktika (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — «o'rgatuvchi», «ta'lif beruvchi») — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lif nazariyasi bilan shug'ullanadi. «Didaktika» atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lif jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lif va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lif mazmunini aniqlash, ta'lif jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Didaktikaning mohiyatini belgilash, yo'nalishini aniqlashda falsafiy-nazariy asosning o'rni katta. Uzoq vaqt mobaynida ko'plab kommunistik davlatlarda marksizm-leninizm didaktikaning taraqqiyot yo'nalishini belgilab beruvchi metodologik asos deb qarab kelindi. Lekin mazkur ta'lifotning ilmiy asoslari puch, jamiyat va tabiat taraqqiyoti qonuniyatlarini to'g'ri hamda xolis ko'rsatish imkoniyatidan mahrum bo'lgan tarafkash (tendensioz) qarash ekanligi ma'lum bo'lgach, unga tayanish mumkin bo'lmay qoldi. Keyingi vaqtida ko'plab muslimon davlatlarida kalom falsafasiga milliy didaktikaning metodologik asosi sifatida qaralmoqda. Chunki, olamning yaralish, rivojlanish qonuniyatları, insonning bilish imkoniyatlari, ma'rifatning shaxs kamolotidagi, o'zini anglash borasidagi o'rni singari jihatlar ana shu falsafiy asosga tayanilgandagina tushunarli tarzda izohlanishi mumkinligi anglab yetildi.

Kalom falsafasi ta'lif olamni bilishning vositasi ekanligini, bilish jarayonining cheki yo'q, ammo inson bilishi mumkin bo'lgan bilimlar cheklanganligini ko'rsatishi bilan diqqatga sazovordir. Didaktika umumiy psixologiya, o'qitish psixologiyasi hamda bilish nazariyasi bilan uzviy bog'liq. Bu fanlarning har biri bolaning bilish faoliyati va uni amalga oshirilish jarayoni to'g'risida alohida bilim beradi. Ta'lif mazmuni va usullarini belgilash borasida ham mazkur aloqadorlik katta ahamiyatga ega. Didaktika har qanday alohida predmetni o'qitish va uning mazmunini tayin etish qonuniyatlarini aniqlaydigan fan sifatida ta'lif va ma'rifat ishlarini samarali tashkil etishning umumiy usullarini belgilab berishi lozim. O'zbek milliy pedagogikasi tarixida ham didaktikaning asosiy xususiyatlarini aks ettirishga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlar mavjud. Garchi turkiy mutafakkirlarning asarlarida didaktika hozirgi nom bilan atalmagan bo'lsada, lekin ular ta'lif jarayonining qonuniyatlarini belgilashi, uni tashkil etishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishi jihatidan beqiyos ahamiyatga ega.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Al-Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Davoni, Alisher Navoiy, Munis singari mutafakkirlarning ta’limni uyuşdırish, uning samaradorligini oshirish, o‘qitish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari borasidagi qarashlari jahon pedagogikasi taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichini tashkil etadi.

Muayyan yoshdagi bolalarni jamoa tarzida bir joyda o‘qitishning samaradorligi ilk bor Ibn Sino tomonidan ko‘rsatib berilgan bo‘lsa, muallimning o‘zida ezgu insoniy sifatlar bo‘lmasa, bolalarda bunday xislatlarni shakllantirish mumkin emasligi Navoiy asarlarida aks etgan. Marg‘inoniy esa, bilimlarni o‘zlashtirish yuzasidan umumiy tavsiyalar beribgina qolmay, o‘rganilgan tushunchalarni bolalar xotirasida uzoqroq saqlash yuzasidan aniq metodik usullar ham tavsiya etgan. Tarbiyaning ustuvorligi ham bugungi o‘zbek didaktikasining asosiy tamoyillaridan sanaladi. Komil shaxsni tarbiyalash har qanday ta’lim muassasasining asosiy vazifasiga aylandi. Ma’naviyatni shakllantirish maqsad darajasiga ko‘tarilgan sharoitda tarbiyaga ustuvor maqom berilishi tabiiydir. Milliy didaktika o‘quvchilarini ta’lim jarayonining ishtirokchilarigina emas, balki ijrochilari deb qarashni ham ko‘zda tutadi. Ta’lim o‘quvchilarining ichki ehtiyojiga aylanmasa, ular bu jarayonda faol ishtirok etmasalar, hech qanday ijobiy samaraga erishib bo‘lmaydi.

Didaktika ta’lim usullari muammosini ham qamrab oladi. O‘qituvchi biror predmet bo‘yicha o‘quvchilarining tizimli bilim olishini ta’minlash maqsadi sari intilar ekan, ma’lum ishlarning bajarilish namunasini ko‘rsatadi. Ayni vaqtda, u ta’limning barcha bosqichlarida uquvchining faolligi va mustaqilligini ta’minlaydi. O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba va kuzatuvlari asosida yangi bilimlarni o‘zlashtiradi. Ularga chuqur va mustaqil o‘zlashtirishlari, o‘rgangan bilimlarini amaliyotda ijodiy qo‘llashlari uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Birinchi bosqich. Katta maktab yoshidagi o‘quvchilar bilan ishslash — moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo‘lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o‘quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo‘lishni, eng muhimi — jismoniy mehnatga shunday munosabatda bo‘lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo`lidan keladigan o‘z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag‘ishlashga va bundan ma‘naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda barcha sohalar qatori ta‘lim tizimida ham keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu o‘zgarishlarning samarasi yurtimizning taraqqiy topgan davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi avvalo, ilmfan va ta‘lim-tarbiya sohasining rivoji bilan uzviy bog`liqdir. Olib borilayotgan islohatlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7fevraldagi —O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar

strategiyasi to`g`risidagi PF-4947-son farmonining —Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo`nalishda ta`lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san`at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish ka`bi vazifalar belgilangan

Bugun zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan tegishli ishlarni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbni belgilashda asosiy hayotga qadam qo`yayotgan, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo`lgan farzandlarimizning munosib kamol topishida o`qituvchi va ta`lim o`qituvchisi nafaqat o`quvchilarga ilm-fan olamining dastlabki bilimlarini beradi, balki ushbu jarayonda o`quvchilarni kasbga yo`naltiradi. O`quvchi bolaligidan biror bir kasbga mehr qo`yadi, uni orzu qiladi, o`sha kasb egasi sifatida o`zini tasavvur qiladi. Maktabda kasb-hunarga yo`naltirish ishlarini yo`lga qo`yishda an`anaviy amaliy mashg`ulot, suhbat, dialogli munozaralar bilan birga pedagogik o`yin, mustaqil fikrlar kabi yangi pedagogik texnologiya elementlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi.[2,b.6].

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo`ljal olishga o`rgatish zarur. O`qituvchi o`quvchini darslarda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba`zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab olish zarur. Shuningdek, o`quvchi o`z imkoniyatlarini baholay olish ko`nikmasiga, ya`ni aqli, qiziqishi, har xil kasblar bo`yicha tushunchaga ega bo`lib, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axborotga ega bo`lishi kerak.

O`sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo`naltirish hamisha davlatimiz siyosati oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta`lim muassasalarining o`rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o`qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Yaqindagina O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha va xalq ta`lim vazirligi huzuridagi Respublika ta`lim markazi, Oliy talim fan va innovatsiyalar vazirligi bilan hamkorlikda “Uzluksiz ta`limda texnologiya fanini takomillashtirish va o`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish orqali hayotga tayyorlash” mavzusida Respublika online ilmiy amaliy konferensiyasi o`tkazildi. Konferensiyaning asosiy yo`nalishlaridan biri “O`quvchilarni kasb hunarga yo`naltirishda texnologiyalarning ahamiyati va o`rni” mavzusidir. Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg'onaga tashrifi chog'ida Maktabgacha va xalq vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdilar. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo`naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 7-sinfdan boshlab o`quvchilarni kasbhunarga yo`naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdilar.

Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo`lgan yoshlarga ta`lim berish ularni o'qitish bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o'yantirib

qo'yayotgani tabiiy. Chunki, zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi. O'quvchilar kompyuter va vibrostendlar bilan jihozlangan maskanlarda kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga robo, kosmo, nano, bio yo'nalishlarida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladilar. O'z davrining buyuk ixtirochisi, qizlardan esa buyuk dizayner, yoki qo'li shirin qandolatchi ham chiqishi mumkin. Asosiysi bu bolaning o'z qiziqishiga bog'liq.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, hurmatli ota-onalar fanzandlarini eng ko'p pul ketiradigan sohaga emas balki o'zi qiziqadigan sohaga yo'naltirishlari lozim. Farzandni o'zi qiziqmasa ham sen bankir yoki huquqshunos bo'lishing kerak deb majburlash bu nazarimizda nato'g'ri. Bir o'ylab ko'ringga Alber Enshteynning ham ota-onasi farzandini bankir qilmoqchi bo'lganida dunyo bita zo'r olimdan ayrılgan bo'lmasmidi. Demoqchimanki, bola o'z qiziqqan sohasi bo'yicha bilim olsa yaxshi natijaga erishadi. Farzandingiz ixtirochilikka qiziqsa unga fizikani emas huquqni o'qi deb majburlashiningiz nato'g'ri deb o'layman. O'quvchilarning yashirin istedotlarini ochib beradigan va yosh avlod hayotidagi roli va ahamiyatini hisobga olgan holda fandarslariga yanada ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi kerak deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"-gi Qonuni.
23.09.2020y.—Xalq ta'limi jurnali.
2. Mardanov D. Maktabda kasbga yo'naltirish ishlari. — Nukus. 2013. — 182 b.
3. Jumaboyeva M. Umumiyo'rta ta'limda kasbga yo'naltirish ishlarining tuzilmasi —Toshkent 2010 — 67 b.
4. Internet manbaları